

RESEARCH ARTICLE

Pejorative Expressions With The '개 (It)' Component In Korean And Their Rendering In Uzbek

Noila Mirkhamidova

PhD Student, Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 196-198

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

The article examines the reasons for the productive use of pejorative forms of address containing the component "개 (dog)" in Korean and Uzbek languages. Furthermore, it highlights the ways in which Korean address forms involving the lexeme "개 (dog)" are expressed in Uzbek and discusses methods for their accurate translation.

KEY WORDS

Pejorative address, negative attitude, gender, expressive-emotional function, hierarchical system.

INTRODUCTION

Koreys va o'zbek muloqotining gender xoslanishini ifodalashda suhbatdoshga nisbatan salbiy munosabatni bildiruvchi peyorativ murojaat birliklaridan keng foydalaniladi. Peyorativ murojaat birliklarida ekspressiv-emotsional funktsiya yaqqol namoyon bo'ladi.

Nutq xulq-atvori nuqtayi nazaridan ekspressiv-emotsional murojaatlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) erkalash-suyish;
- 2) dalda berish, qo'llab quvvatlash;
- 3) g'azab, haqorat, do'q-po'pisa;
- 4) kesatish;
- 5) kamsitish;
- 6) mazax qilish.

Yuqorida qayd etilgan murojaat guruhlarida orasida g'azab, haqorat, do'q-po'pisa; kesatish; kamsitish hamda mazax qilish kabilar peyorativ, ya'ni salbiy ma'noni ifodalaydi. Binobarin, "peyorativ leksik qatlamni ma'lum bir so'zlar, so'z birikmalari yoki salbiy ma'nodagi ifodalar tashkil etib, ular suhbatdoshni

kamsitish, haqoratlash maqsadida ishlatiladi.

Koreys va o'zbek tillaridagi peyorativ murojaatlarni nutqdagi his-hayajonni ifodalashda hayvon nomlariga asoslangan murojaatlar alohida ajralib turadi. Koreys tilida hayvon nomlariga asoslangan murojaatlar orasida 개 [gae] ya'ni it so'zi bilan ifodalangan kamsitish murojaatlari keng qo'llaniladi. Buning turli sabablari bo'lib, birinchidan, kundalik hayotda itga uy hayvoni, ya'ni uy-ro'zg'orni qo'riqchisi, yoki ovchi hayvon sifatida qaralgan. Binobarin, it past maqomli, nazorat qilinadigan mavjudot sifatida tasavvur qilingan. Ikkinchidan, koreys tilida 개 [gae] it haqorat markazida turuvchi kuchli salbiy bo'yoqqa ega so'z bo'lishi bilan birga, har qanday salbiy so'zni kuchaytiruvchi prefiks vazifasida ham keladi. Masalan: 개 같은 사람 [gae gateun salam] itga o'xshagan odam, 개새끼 개망하다 [gaesaekki itvachcha, 개판이다 [gaepanida] it bozori (tartibsizlik haqida).

Aytilganlar bilan birga, 개 [gae] it bilan yasalgan haqorat ifodalar qisqa va fonetik jihatdan keskin talaffuz qilinib,

insonga psixologik jihatdan kuchli hissiy zarba beradi. Masalan, 바보야 [baboya] ahmoq so'zi aqliy yoki ruhiy holatni kamsituvchi nisbatan yengil, ba'zan hazil tarzida qo'llanuvchi xitob hisoblanadi. Unga 개 [gae] it so'zi qo'shilib개바보야 [gaebaboya] o'ta ketgan ahmoq hosil qilinganda juda haqoratli murojaatga aylanadi. Shu bois개바보야 [gaebaboya] o'ta ketgan ahmoq janjalli vaziyatlarda, ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy sharhlarda, og'zaki so'zlashuvda ko'p ishlatiladi.

Quyida개 [gae] it komponenti bilan yasalgan peyorativ murojaatlarni ko'rib chiqamiz:

두 사람 사이에 흐르는 침묵엔 태풍의 눈이 형성되고 있었다.
바로 그 태풍의 눈에서 유리의 옥설이 터져 나왔다. [Du saram saie heureuneun chimmugen Taepungui nuni hyeongseongdoego isseottda. Baro geu Taepungui nuneseo Yuriui yogseori teojyeo nawattda.]

"이런 개 같은 년!" [Ireon gae gateun nyeon!]

"개 같은 년"이라는 옥설을 들은 아내는 남편을 향해 더 높은 목소리로 공격했다. ["Gae gateun nyeon"iraneun yogseoreul deureun anaeneun nampyeoneul hyanghae deo nopeun mogsorilo gonggyeoghaettda.]

"년 개 보다도 못한 놈이야!" [Neon gae bodado mothan nomiya!]

Mazkur parchani o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilish mumkin:

Ikkovining sukunatidan xuddi to'fon boshlanadigandek edi. Shunday ham bo'ldi. Bu to'fon Yurining og'zidan chiqqan so'kinish edi.

"Ha, itga o'xshagan...!"

"Itga o'xshagan" degan so'kinishni eshitgan ayoli o'sha xaxotiyoyoq eriga qarata yanada baland ovozda "hujum" qildi.

"Sen itdan ham battarsan!"

Yuqorida keltirilgan parchadagi "이런 개 같은 년!" [Ireon gae gateun nyeon!] "Ha, itga o'xshagan...!" jumlasida erkak xotiniga itga o'xshagan iborasini yanada kuchaytirib 년 [nyeon] so'zini ham qo'shib qo'llagan.

Koreys tilida년 [nyeon] ayollarga nisbatan haqorat, kamsitish ma'nosida qo'llaniladigan qo'pol ifoda, aniqrog'i sleng hisoblanadi (masalan: 미친년 [michinnyeon] telba ayol, 나쁜년 [nappeunnyeon] yaramas ayol).

개 [gae] it +년 [nyeon] kombinatsiyasi esa eng og'ir haqorat bo'lib, uning kundalik hayotda ishlatilishi ijtimoiy mojarolarga olib kelishi mumkin. Undan ko'proq badiiy kontekstlarda emotsional-ekspressivlikni oshirishda foydalaniladi:

개년 [gaenyeon] – pastkash ayol;

미친 개년 [michin gaenyeon] – g'irt telba ayol;

나쁜 개년 [nappeun gaenyeon] – o'ta ketgan yaramas ayol.

Yuqorida keltirilgan misollardan년 [nyeon] leksemasining "past, insoniy qadri yo'q ayol" semantik maydonini hosil qilganini ko'rish mumkin.

Koreys tilidagi개년 [gaenyeon] pastkash ayol haqoratiga o'zbek tilida "urg'ochi it" ma'nosidagi qanjiq so'zi muqobil bo'ladi. Til taraqqiyoti natijasida qanjiq so'zi metaforik yo'l bilan ayollarga nisbatan ko'chirilgan bo'lib, eng og'ir haqorat so'zi hisoblanadi. Jamiyatda urg'ochi it obraziga nisbatan nazoratsiz jinsiy aloqa, betayinlik, axloqsizlik kabi salbiy stereotipik qarashlarning shakllanishi oqibatida qanjiq leksemasi metaforik ma'no kasb etgan. Mazkur metafora ayol shaxsiga nisbatan qo'llanilganda ayolning axloqiy qadri, sha'ni, or-nomusi, o'bro'yi inkor qilinishiga olib keladi. Ochiq so'kinish murojaati sifatida ko'pincha janjal, zo'ravon nutqda ishlatilib, genderga xos lisoniy kamsitish sifatida namoyon bo'ladi. Masalan:

Chuvrindi hojasining yelkalarini silab, bir oz ovutganday bo'ldi.

– Anavi qanjiq tanish ko'rindi, kim u? – dedi Asadbek hansirab:

– Kasalxonadagi hamshiraga o'xshatdim .

Aytilganlar bilan birga, koreys tilida년 [nyeon] bilan asimmetrik qator hosil qiluvchi 놈 [nom] leksemasi esa erkaklarga nisbatan haqorat ma'nosida qo'llaniladi:

"년 개 보다도 못한 놈이야!" [Neon gae bodado mothan nomiya!]

Uni o'zbek tilida quyidagicha ifodalash mumkin:

“Sen itdan ham battarsan!”

Koreys tilidagi 개새끼 [gaesaekki] itvachcha peyorativ murojaati, asosan, erkaklarga nisbatan ishlatiladi. Masalan:

개새끼, 한테나 잡혀가라! [gaesaekki, hantena jabhyeogala!]

O'zbekcha tarjimasi: Itvachcha, jin ursin seni!

O'zbek tilida ham erkaklarga nisbatan peyorativ murojaatlarni ifodalashda it, itvaccha leksemalarining faolligi kuzatiladi. Garchi, o'zbek madaniyatida it foydali, qo'riqchi, sadoqatli hayvon deb bilinsa-da, u metaforik ma'noda ahloqiy jihatdan past, nopok, vijdotsiz kishilarni baholash uchun ishlatiladi. Binobarin, koreys tilidagi to'g'ridan-to'g'ri qo'llaniladigan va haqoratning grammatik markaziga aylangan 개 [gae] it dan farqli ravishda o'zbek tilidagi it bilvosita haqoratni ifodalaydi. Xususan, erkakni “it” deyish, uni insoniy qadr-qimmatdan mahrum qilish demakdir. Masalan:

Azizbek qarshisida qo'l bog'lab turg'an darboza begig'a baqirdi:

– Nega qarab turasan, darboza ustiga chiq, kim ekan u it?!

Shu bilan birga, o'zbek tilida kuchli haqoratni ifodalaydigan itvaccha, itdan tarqagan, it emgan singari iboralar peyorativ murojaatlar sifatida so'kish nutiqida qo'llaniladi. Quyidagi misollarga murojaat qilamiz:

O'v, itvachcha! Oqsoqolning guldura ovozidan seskanib ketdim. Haykaldek qotib turgan Bashor opaning pinjiga battar tiqidim .

Armonda ketmasin, dedilar. O'g'il bolalik shunchalar bo'ladi-da! O'zingni bosib ol, he itdan tarqagan. – Jamshid shunday deb uning oyog'ini ham bog'ladi-da, chiqib ketdi .

Hasanalidan xat olg'ani borg'anida otxonada ko'rgan qora to'riq otni tanig'ani on qo'ltug'ig'a kirib olg'an ro'dapodan qutilishg'a tirishib boqdi, lekin uhdasidan chiqolmag'ach, ko'zini yirtqichlarcha chaxchaytirib «it emgan da'yus!» dedi qo'ltug'idag'i jonlik kishanga... .

Xullas, koreys va o'zbek tillarida “it” komponentli peyorativ murojaatlarning keng tarqalishini lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan izohlash mumkin. Har ikkala lingvomadaniyatda it obrazi, asosan, past maqom, axloqsizlik, odobsizlikni ifodalaydi. “It” komponentli peyorativ murojaatlar kamsitish, nafrat, haqoratni anglatib, ulardan, asosan, keskin emotsional

vaziyatlarda foydalaniladi.

O'zbek jamiyati an'anaviy odob-axloq tizimiga, koreys jamiyati esa konfutsiycha iyerarxik tizimga asoslanadi. Odatda, bunday jamiyatlarda ijtimoiy tartib va odob-axloq me'yorlariga qat'i amal qilinadi. Shu bois ushbu me'yorlarni buzish, “insoniylikdan chiqish”, “insonlik qiyofasini yo'qotish” hisoblanib, bu holat ko'pincha it obrazi orqali tasvirlanadi.

Shunday qilib, koreys va o'zbek tillarida “it” komponentli peyorativ murojaatlarning sermahsul qo'llanilishini har ikkala madaniyatda it obrazining salbiy baholanishi, insonni kamsitishda qulay metafora sifatida kelishi hamda kuchli hissiy ta'sirga ega ekanligi bilan izohlash mumkin.

REFERENCES

1. Ромазанова О. В. Коммуникативно-прагматические аспекты обращения в разноструктурных языках (на материале английского и татарского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2007. – С. 12.
2. 권택조. 흑광, 행복에너지 출판, 2013. 23 쪽.
3. Малик Тоҳир. Шайтанат. Иккинчи китоб. – Б. 210. <https://www.ziyouz.com>.
4. 권택조. 흑광, 행복에너지 출판, 2013. 23 쪽.
5. 나도향. 꿈, 조선문단, 1925. 25
6. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – B. 48. . <https://www.ziyouz.com>.
7. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 415.
8. Малик Тоҳир. Шайтанат. Биринчи китоб. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти, 1998. – Б. 178.
9. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – B. 104. . <https://www.ziyouz.com>.